

# Tong yulduzi

Vatan yagonadir,  
Vatan bittadir!

N:26 (67191)  
2018-yil 25-iyun

www.tongyulduzi.uz

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan O'zbekiston Respublikasi bolalar va o'smirlar gazetasi ISSN - 2010-6092

## ILM VA MA'RIFAT - XALQLAR O'RTASIDAGI KO'PRIK



Prezidentimiz tashabbusi bilan shu yilning 19-23-iyun kunlari Samarqand shahrida ilk marotaba umumta'lim maktablarining 10-11-sinf o'quvchilari o'rtasida fizika va astronomiya fanlaridan Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiada bo'lib o'tdi.

(Davomi 2-bet da)



**Bilimdonlik ajab yaxshi matodir,  
Bu boylicsiz qolmoq katta xatodir!**  
Nizomiy GANJAVIY

**Tong  
yulduzi**

(Davomi. Boshi 1-betda)

**Tarixdan ma'lumki, yurtimizda, tabarruk zaminimizda buyuk allomalar, fozil-u fuzalolar, olim-u ulamolar yetishib chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari mana shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eng qadimgi bitiklardan tortib, bugun muzey va kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan 20 mingdan ortiq qo'lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san'at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, me'morchilik, dehqonchilikka oid o'n minglab asarlar beqiyos ma'naviy boyligimiz, iftixorimizdir. Prezidentimiz e'tirof etganlaridek, bunchalik katta merosga ega bo'lgan xalq dunyoda kam topiladi. Buyuk ajdodlarimiz - Xorazmiy, Beruniy, Ibn Sino, Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Zamahshariy singari umumbashariy taraqqiyotga ulkan hissa qo'shgan ajdodlarimizning bizga qoldirgan o'lmas merosidan hozirgi avlod qalbida faxr-iftixor tuyg'usi jo'sh urayotgani barchamizni quvontiradi, albatta.**

## ILM VA MA'RIFAT - XALQLAR O'RTASIDAGI KO'PRIK

Mirzo Ulug'bek nomidagi xalqaro olimpiadani o'tkazishdan maqsad, ota-bobolarimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo'shgan ulkan hissasini xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, o'quvchilarni buyuk ajdodlarimizga munosib voris qilib tarbiyalash, qolaversa, ularni xorijiy mamlakatlardagi tengdoshlari bilan do'stona aloqa o'rnatishiga ko'maklashishdan iboratdir.

Mazkur xalqaro olimpiadada dunyoning qator davlatlaridan iqtidorli o'quvchilar ishtirok etdi. Bellashuvlar

nidan oltin, kumush, bronza medallari, diplom va esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

- 10 yil avval fizika sohasida dissertatsiya yoqlash uchun Toshkentga kelganman. Ayni paytda Toshkentda yashayman. Mirzo Ulug'bek nomidagi fizika va astronomiya fanlari bo'yicha xalqaro olimpiadada hakam sifatida ishtirok etdim. Ushbu tanlov yurtimizda, xususan, Samarqandda bo'lib o'tganidan juda xursandman.

O'ylaymanki, kelgusida ishtirokchi davlatlar soni yanada kengayadi, - deydi

yagona ishtirokchi bo'ldingiz. Siz nafaqat maktab, tuman, balki viloyat faxriga ham aylandingiz. Shunday emasmi?

- Bu menga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Kelgusida fizika va astronomiya fanlarini chuqur o'rganib, ajdodlarim nomiga munosib bo'lishga harakat qilaman. Qolaversa, ushbu tanlov menga katta maktab bo'ldi. Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmanistondan kelgan iqtidorli tengdoshlarim bilan yaqindan tanishdim.

- **Maktabingiz haqida ham gapirib bersangiz.**

- Ta'lim maskanimiz Bulung'ur tumanidagi chekka qishloqda joylashgan bo'lishiga qaramay, barcha sharoitlar muhayyo. Laboratoriya xonalari o'quv jihozlari bilan ta'minlangan. Men bir necha yillardan buyon «Bilimlar bellashuvi»da muvaffaqiyatli ishtirok etib kelaman. Barcha yutuqlarimda ustozlarimning mehnati beqiyos. Tilagim, ular doimo sog'-salomat bo'lishsin!



**- Samarqand shahrining betakror go'zalligidan hayratga tushdik, - deydi turkmanistonlik o'quvchilar.**

nazariy va eksperimental bosqichlarida o'tkazilib, materiallar o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlandi.

Hakamlar hay'ati fizika va astronomiya fanlaridan dunyoning taniqli, xalqaro darajadagi ekspertlari, MDH davlatlarining professor-o'qituvchilari va yurtimizning tajribali olimlaridan iborat bo'ldi.

Quvonarlisi, O'zbekistondan qatnashgan xalqaro olimpiada g'oliblari oliy ta'lim muassasalariga imtiyozli ravishda o'qishga kirish huquqini qo'lga kiritdi.

Bellashuv g'olibi va sovrindorlari tashkiliy qo'mita tomo-

yaponiyalik hakam Nakamura Katsuxiro.

Bugungi nufuzli tanlovda Samarqand viloyati, Bulung'ur tumanidagi 6-umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Begzod Ashurov ham ishtirok etdi. Fursatdan foydalanib, uni suhbatga tortdik:

- **Begzod, xalqaro olimpiadaning ochilish marosimida viloyat hokimi o'rinbosari sizni alohida tilga oldi. Chunki siz tanlovning saralash bosqichidan muvaffaqiyatli o'tib, bugun xalqaro olimpiadada Samarqand viloyatidagi**



**Olimpiada g'oliblari bilan gazetamizning keyingi sonida tanishasiz.**

## SO'Z - XALQARO OLIMPIADA ISHTIROKCHILARIGA!

**Mahmud ASENTAI,**

**Qozog'iston Respublikasi, Olmaota shahridagi Respublika fizika va matematika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi:**

- Bizni Samarqand temiryo'l vokzalida karnay-surnay sadolari ostida kutib olishdi. Qadimiy kent, unda yashab o'tgan buyuk allomalar va ular qurdirgan tarixiy obidalar haqida ko'p eshitganman. Bugun o'z ko'zim bilan ko'rib, bunga guvoh bo'lib turibman.



**Islam AMANGELDI,**

**Qozog'iston Respublikasi, Olmaota shahridagi Respublika fizika va matematika fanlariga ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi:**

- Men bu kabi xalqaro olimpiadada bir necha marotaba ishtirok etganman. Jumladan, 2017-yil Belorusda o'tkazilgan xalqaro tanlovda kumush medal sohibi bo'ldim. O'zbekistonda o'tkazilgan ushbu olimpiadada qantashganimdan juda xursandman. Yurtimizda katta taassurot qoldirdi. Ayniqsa, shahar ko'chalarini to'ldirib, qushdek uchib borayotgan yengil mashinalar e'tiborimni tortdi. Quvonganim shundaki,



ularning aksariyati O'zbekistonda ishlab chiqarilgan ekan.

**Timur TINICHBEKOV,**  
**Qirg'iziston Respublikasi, X. Karasayev nomidagi litsey o'quvchisi:**

- Ishtirokchilarning har biri olimpiadaga jiddiy tayyorgarlik ko'ribdi. Ana shunday izlanuvchan tengdoshlarim bilan tanishdim, ko'plab do'stlar orttirdim.

**Bobur HALIMOV,**  
**Buxoro viloyati, Qorako'l tumanidagi 1-DIUM o'quvchisi:**


- Men bu yil 10-sinfni muvaffaqiyatli yakunladim. Yaqinda Respublikamizda fizika fanidan iqtidorli o'quvchilar o'rtasida o'tkazilgan innovatsion olimpiadada 3-o'rinni egalladim. Olimpiada meni yanada ko'proq izlanishimga turki bo'ldi. Istandimki, butun dunyo yoshlari hamisha izlanishga, o'qib-o'rganishga intilsin. Kitob o'qish eng sevimli mashg'ulotiga aylansin!



# 30-IYUN – O'ZBEKISTON YOSHLARI KUNI

Mulohazali, ammo fikrini ifodalashda dangal bu qiz quyi sinflarda o'qiyotgan paytidayoq maktabida o'tayotgan tadbirlar haqida tahririyatga kichik-kichik xabarlar olib kelardi. Astasekin uning maqola yozish mahorati shakllana bordi. Turli mavzulardagi qiziqarli xabar va hikoyalari birin-кетин «Tong yulduzi» gazetasida chop etila boshladi. Sportni inson hayotida muhim ekanligini bilgan tengdoshingiz badiiy gimnastika bilan shug'ullanib, ko'plab yutuqlarga erishdi.

## A'LO YURTNING A'LO FARZANDI



Poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 261-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi Maftuna Mahmudjonova yoshligidan kitob o'qishga qiziqadi. U bugunga qadar o'zbek va jahon adabiyotining 150 dan ziyod durdona asarlarini mutolaa qilishga ulgurdi. Ijodkor tengdoshingiz ilhom kelganida she'rlar mashq qiladi. U O'zbekiston yoshlar ittifoqining maktab va tuman Kengashi sardori sifatida yon-atrofdagilarga doimo o'rnak.

O'quv yili yakunida «Yilning faol o'quvchisi» hamda «Eng a'lochi o'quvchi» nominatsiyasi g'olibi bo'lgan Maftuna kuni kecha tahririyatimizga ko'zlarida quvonch bilan kirib keldi. Sababi, uning «Bolalik orzulari» deb nomlangan ilk she'riy to'plami nashrdan chiqibdi. Biz uning ijodiga parvozlarni tilab, yozgi ta'tilni qanday o'tkazishi bilan qiziqdik:

– Maktabimizda «Qaldirg'och» nomli bolalar oromgohi tashkil etildi, – deydi suhbatdoshimiz. – Biz Yoshlar ittifoqining faollari va o'quv ishlari bo'yicha direktor muovini Hafiza Nurillayeva bilan birgalikda oromgohda ta'til o'tkazayotgan dam oluvchi bolajonlar uchun ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazayapmiz. Ayni paytda bu yerda adabiyot, sport, tasviriy san'at, shaxmat-shashka, raqs to'garaklari faoliyat yuritaypti. Ayniqsa, Mavjuda Ahmedova rahbarlik qilayotgan raqs to'garagida singlim Dilnoza, jyanim Shahzoda, Mohinur turli raqslarni o'rganayotganliklaridan xursand.

Nodira NAZAROVA

## SARDORLAR SAYOHATDA

«Yaxshi dam – mehnatga hamdam», deganlaridek, yil davomidagi loyihalarimizdan so'ng biroz charchoqni yozish uchun O'zbekiston yoshlar ittifoqi, «Kamalak» bolalar tashkiloti sardorlari, faol o'quvchilar, boshlang'ich tashkilot yetakchisi Nilufar Haydarova va maktabimiz ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari Tamara Adilova bilan birgalikda ro'yi zamin sayqali – Samarqand shahriga sayohatga yo'l oldik.

Ziyoratimizni Go'ri Amir maqbarasidan boshladik. Tarix mo'jizalaridan hayratlangan holda sayohatimizni Register majmuida davom ettirdik. Yurtimizda shunday salobatli, tarixiy yodgorliklarning borligi ota-bobolarimiz, ajdodlarimizning naqadar buyuk bo'lganidan darak beradi.

Shaharda chet ellik sayyohlar talaygina. Ular bilan ingliz tilida qizg'in suhbatlashdik. Ziyoratimizning keyingi manzili «Shohi Zinda», «Bibixonim» madrasalari bo'ldi. Muqaddas qadamjo – Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov ziyoratgohiga ham keldik.

Sayohatimiz oxirlab, bir olam taassurotlar bilan uyga qaytdik. Yaqinlarimizga hadyalar olishni ham unutmadik.

Aziza AKTAMOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 1-ixtisoslashtirilgan umumta'lim maktabi o'quvchisi,  
Yoshlar ittifoqi sardori

## INSHODAN MAQOLAGACHA

Otabek BAKIROV, Toshkent viloyati, Angren shahridagi 27-umumta'lim maktabi o'quvchisi:



– Ilk bor «Tong yulduzi» gazetasidagi «Ona-jonim tabiat» insholar va rasmlar tanlovi haqida o'qib, ijodiy ish yozganim esimda.

Bu ishtiyoq meni keyinchalik maqolalar yozishga ham undadi. Bunda menga Muhabbat Abduqodirova, Dilafruz Razzoqova kabi ustozlarim katta yordam berdi.

Atrofdagi voqealarga, tengdoshlarimning yaxshi-yomon odatlariga befarq qarab turolmayman. Shu sabab bo'lsa kerak, gazetada «Boshimga sochiningizning savdosi tushdi», «Ijodiy ishmi yoki ko'chirmakashlik?» kabi maqolalarim chop etildi. Hozirda «Tong yulduzi»ning faol muxbiri, Respublika yosh ijodkorlari Kengashi va O'zbekiston yoshlar ittifoqining Angren shahar Kengashi faol a'zosi hamda maktabda «Targ'ibotchi kitobxon» ekanimdan faxrlanaman.

## «BARKAMOL AVLOD» – KO'NGILLARNI ETAR SHOD



Ta'til kunlarida tumanimizdagi «Barkamol avlod» bolalar markazi a'zolari soni yanada ko'payib, o'quvchilar o'z qiziqishlariga ko'ra turli to'garaklarga qatnashmoqda.

Ularga «Badiiy ijodiyot», «Texnik ijodkorlik», «O'lakashunoslik», «Ekologiya» kabi yo'nalishlarda mohir ustozlar mashg'ulotlar o'tishmoqda. Bundan tashqari, markaz rahbari Shahlo Ma'murovning tashabbusi bilan turli ko'rik-tanlovlar tashkil etilmoqda. Bu kabi bellashuvlarda men rahbarlik qilayotgan «Do'ppido'zlik» to'garagining faol qizlari ham yaxshi natijalar ko'rsatayotganidan mamnunman. Qolaversa, o'quvchilar bo'sh vaqtlarida «Tong yulduzi» gazetasini o'qishni ham unutmaydi.

Mohinur SOHIBOVA,

Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi 43-umumta'lim maktabining to'garak rahbari

## «MUNOZARA»DAGI BAHS-MUNOZARA

Vaqt o'zi nima? Uning qadriga yetayapmizmi? Ayniqsa, ta'til kunlarida bo'sh vaqtimizni to'g'ri taqsimlashimiz lozim. Bu borada bizga O'zbekiston yoshlar ittifoqining maktabimizdagi faol a'zolari yaqindan yordam berishadi.

Jumladan, ta'lim dargohimizning yoshlar yetakchisi M. Karimov rahbarlik qilayotgan «Munozara» klubi a'zolari tomonidan o'tkazilayotgan «Yoshlar va kitobxonlik», «Yoshlar va internet», «Vaqtningi besamar o'tkazma!» kabi tadbirlar bizni bahs-munozaraga chorlamoqda. Bundan tashqari, hunar va turli sport to'garaklarida vaqtimiz chog' o'tmoqda. Qolaversa, kitob mutolaasi zavqli mashg'ulotimizga aylanmoqda. Har bir o'qigan asarimiz nimadandir saboq beradi. Mana hozir vaqtini unumli o'tkazish haqida so'z yuritir ekanman, O'tkir Hoshimovning «Daftar hoshiyasidagi bitiklar» kitobida o'qigan satrlarim yodimga tushdi. Unda «Noningni yo'qotsang yo'qot, nomingni yo'qotma», deyiladi. Yaxshi nom qozonish va uni yo'qotmaslik uchun esa vaqtdan unumli foydalanish zarur.

Aziz tengdoshim, Siz ham vaqtning qadriga yetib, har bir kuningizni maroqli o'tkazing!

Jahongir PO'LATOV,

Samarqand viloyati, Kattaqo'rg'on tumanidagi 3-umumta'lim maktabi o'quvchisi

Hozirgi yoshlarimiz safimizga katta tayyovgarlik bilan, bilim va mahorat bilan kirib kelishyapti. Demak, yosh bo'la turib ham bizdan o'tkirroq narsalar yoza olishlari tabiiy. Buni qarshi ola bilish, qadriga yeta bilish kerak.

ZULFIYA

Tong yulduzi

27-IYUN - MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

## ORZUNGIZ JURNALIST BO'LMOQ...

Har kasbning o'z havasmandlari bor. Shuni faxr bilan aytishim mumkinki, orangizda biz qalam ahliga o'xshashni orzu qiladiganlar ham yo'q emas. Bejizga har kuni tahririyatimiz eshigini taqillatib, ilmga chanqoq o'quvchilar, jurnalistika sohasiga mehr qo'ygan intiluvchan yoshlar kelishmaydi! Viloyatlik yosh ijodkor tengdoshlaringiz esa telefon orqali ustozlik qilishimizni so'rab, mulohazali maqolalarimizni o'qib borayotganliklarini aytishadi. Sevimli gazetasida kichkinagina xabar yoki maqolasi chop etilsa bormi, bu ular uchun katta bayramga aylanishi, shubhasiz. Quyida sizlarni ana shunday yosh ijodkor do'stlaringiz, bo'lg'usi hamkasblarimiz bilan tanishtiramiz.

### MATBUOT SARDORIMAN

Sevarbek ELBOYEV, Toshkent shahar, Yakkasaroy tumanidagi 118-umumta'lim maktabi o'quvchisi:

— Siz kabi fidoyi jurnalistlarga havasim keladi. Qiziqarli xabarlarimni tengdoshlarimga yetkazishga, tadbirlarda faol bo'lishga va bular haqida gazetalarda maqola yozishga harakat qilaman. Hozirda O'zbekiston yoshlar ittifoqining tuman Kengashi matbuot sardori sifatida sohada amalga oshirilayotgan ishlar, tadbirlar haqida ijtimoiy tarmoqlardagi maxsus sahifamizga qiziqarli ma'lumotlarni joylab bermoqdaman. Jurnalist bo'lish uchun ko'p gazeta-jurnal, kitoblar o'qish kerakligini yaxshi bilaman. Bu borada maktabda «Targ'ibotchi kitobxon» sifatida ham avvalo, barchaga namuna bo'lishga harakat qilmoqdaman.



### DUGONALARIM HAVAS QILISHADI

Go'zal REYIMBOYEVA, Qoraqalpog'iston Respublikasi, To'rtko'l tumanidagi 19-umumta'lim maktabi o'quvchisi:



— Men jurnalist bo'lish orzusida ekanimni barcha ustozlarim, qishloqdoshlarim yaxshi bilishadi. «Tong yulduzi» gazetasida o'tkazilgan tanlovlarda g'olib bo'lganimda dugonalarim menga rosa havas qilishdi. Onam esa turli nashrlarda chop etilgan maqolalarimni to'plab, uyga kelgan mehmonlarga faxr bilan ko'rsatgani-ko'rsatgan. Yaqinda shahrimizda bo'lib o'tgan «Respublika o'quvchi-qizlar sammiti»da media jurnalistika yo'nalishi bo'yicha qatnashib, diplom bilan taqdirlandim. Kelajakda respublikamizdagi taniqli jurnalistlar — Lazzet opa Berdimurodova va Lola opa Qallixonova kabi mohir ijodkor bo'lishga harakat qilaman.

### MAROQLI TA'TIL

Ta'til kunlarida maktablarda tashkil etilayotgan yozgi oromgohlar bolalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tishida katta ahamiyatga ega.

Ana shunday maskanlardan biri poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 237-umumta'lim maktabida «Polvoncha» nomi bilan tashkil qilindi.

— Oromgohda ingliz tili, rus tili, mutolaa va kino-teatr xonasi, shaxmat va shashka mashg'ulotlari tashkil etilgan. Bu yerda bolajonlar bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqda, — deydi maktabning boshlang'ich sinf o'qituvchisi Marg'uba opa Gaipova: Qadrli o'quvchilar, ta'til kunlaringiz qanday o'tmoqda? Bu haqda bizga, albatta, yozib yuboring.

Nigora JO'RAYEVA

### TASHABBUS KO'RSATISHNI YAXSHI KO'RAMAN

Nafisa PARDAYEVA, Surxondaryo viloyati, Denov tumanidagi 36-umumta'lim maktabi o'quvchisi:



— Bolaligimda onam ko'p she'r-u hikoyalar aytib berardi. Shu bois, adabiyotga mehrim baland. Yozganlarimni ham onam birinchi bo'lib ko'rib berardi. So'ng, ularni tahririyatga yo'llayman. Maqola-yu hikoyalarimni gazeta sahifalarida ko'rganimda, quvonib ketaman. Maktabda Yoshlar ittifoqi sardoriman. Siz jurnalistlar kabi tashabbuskorlik, faollikni yaxshi ko'raman. Kelajakda shu kasbning yetuk mutaxassisi bo'lishni orzu qilaman.

### MAKTABGA KELGAN MUXBIR

Azizbek ABDUMALIKOV, poytaxtimizning Chilonzor tumanidagi 202-umumta'lim maktabi o'quvchisi:



— Bu kasbga qiziqishimga O'tkir Hoshimovning asarlari sababchi bo'lgan. Sevimli yozuvchinning kitoblarini o'qib, o'zim ham kichik hikoya va maqolalar yoza boshladim. Bir kuni ustozlarim Gulzoda Soatova, Sanobar Mahkamova, kutubxonachimiz Nasiba Eshmo'minova tadbirga gazetedan muxbir kelishini aytishdi. Ana shu voqea sabab, «Tong yulduzi» bilan do'stlashib oldim. Bugun uning har bir sonini mutazam o'qib boraman. Hozirgacha bir nechta maqolalarim ushbu gazetada chop etildi. Har gal tahririyatga borganimda, Siz jonkuyar soha xodimlari bilan suhbatlashar ekanman, jurnalist, eng avvalo, ziyarak, epcil va albatta, bilimdon bo'lishi lozimligini anglayman.

### MEHMONIMIZ «KLASS!» GAZETASI

Ba'zan ota-onalar va

o'quvchilardan: «Tong yulduzi» gazetasi rus tilida ham nashr qilinadimi? Gazetangizda rus tiliga ixtisoslashgan maktab o'quvchilarining ham ijodiy ishlari chop etiladimi?» degan savollarni eshitib qolamiz.

## «TONG YULDUZI»GA TENGDOSH, «KLASS!» SIZGA DO'ST, SIRDOSH

Ana shunday paytlarda «egizagimiz», qadrdon do'stimiz bo'lgan «Klass!» gazetasi haqida so'z ochamiz. Ushbu nashrning bolalarcha quvnoq, ochiqko'ngil ijodiy xodimlari esa Siz bolajonlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishga doimo shay. Bu yerdagi jurnalist aka-opalarimiz gazetani o'quvchilarning qiziqishlaridan kelib chiqib, ular bilan birgalikda tayyorlaydi. Bu orqali gazetxon o'quvchilar nafaqat mushtariy, balki yosh muxbir sifatida ham shakllanib boradi.

Respublika bolalar va o'smirlarining rus tilidagi «Klass!» gazetasi 1927-yildan chop etib kelinadi. Har hafta rangli tarzda nashrdan chiqadigan gazetada yurtimiz bolalarining hayoti, orzu-intilishlari, qiziqishlari haqida

atroflicha ma'lumotlar berib boriladi. Nashr orqali turli tanlov va aksiyalarni o'tkazishga ham alohida e'tibor beriladi. Tahririyat qoshida «Yosh muxbirlar maktabi» to'garagi tashkil etilgan bo'lib, bugungi kunga kelib, Lina Isxakova, Marjona Zayniddinova, Igor Gordeyev, Nasiba Iftixorova, Dilyaver Abyakimov faol muxbirlar safidan o'rin olib ulgurd. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, bugun «Klass!» gazetasi «O'zbekiston havo yo'llari» samolyotlarida safarga otlangan yosh yo'lovchilarning parvoz vaqtlariga ham mazmun bag'ishlamoqda.

Biz «Klass!» gazetasi o'quvchilar uchun nomiga monand «ZO'RI!» bo'lib qolishini tilaymiz!



Sayyora QODIROVA

## PUPPIES FOR SALE

Once upon a time a farmer decided to sell the puppies that his pet dog had given birth to. One sunny and fresh morning, a little boy came up to him and asked, «Can I buy one puppy?». The farmer replied, «I'm not sure you can afford to». The boy pulled out a few sums from his pocket and handed it to the farmer, «Can I just look at them?» he asked. The farmer let him watch the puppies. The boy looked at the little puppies with delight. He suddenly noticed a smaller puppy in a corner, which limped and struggled to keep up with the other active puppies. «I want that one». The little boy said.



The farmer laughed loudly and replied, «Anyone can have him for free, no one will take him as he will never be able to run and play like the others». On hearing this, the boy lifted his trousers revealing a steel brace on his legs attached to a specially made shoe. «You see, he doesn't need someone to play with, he just needs someone who understands», replied the boy.

From internet materials done by D. ABDULLAJONOVA

## LET'S CHECK YOUR KNOWLEDGE

Do you remember the parts of speech? There is given some words and your task is tick the suitable columns.

Word	Noun	Verb	Adjective	Adverb
To take a shower		*		
Lead				
Recently				
Just				
Floss				
Deft				
Daily				
Reliable				
Flexible				
Steamer				

## KITCHEN NEW WORDS

Read the sentences and match the suitable answer.



Boil, bake, grill, fry, roast, bake


1. In water example: potatoes and rice –
2. In oil or butter above the heat –

3. Under the heat, toast and meat –
4. In the oven using oil for instance meat –
5. In the oven without oil example cakes –

Dinora ABDULLAJONOVA

## WHAT TIME IS IT?


- Quarter to eight – chorak kam sakkiz.
- Quarter past eight – sakkizdan chorak o'tdi.
- Twenty past seven – yettidan yigirma daqiqa o'tdi.
- Twenty – five to three – uchga yigirma daqiqa bor.
- Ten to ten – o'nga o'n daqiqa bor.
- Morning – ertalab.
- In the morning – ertalabda.
- Midday – tush.
- In the afternoon – tushda.
- In the evening – kechqurun.
- Night – tun.
- At night – tunda.



Ma'mura G'ULOMOVA

## COMPLETE THE CROSSWORD

1. A place with a lot of trees – wood.
2. An animal you can ride –
3. Plant that farmers look after and then sell for food –
4. Unhappy because you are not with other people –
5. If you have something it is yours –
6. Outside towns and cities –



## My English poem

Read the poem and fill the gaps.

Melon, butter, lemon, water, meat, beet, juice

Pishloqni deymiz – cheese  
Shirinliklar bo'lar – sweets  
Limon atalur – ...  
Qovun esa – ...



... – suv  
... – sariyog'  
Go'shtni deymiz – ...  
Lavlagi bo'ladi – ...  
Bular hammasi oziq-ovqat  
... – bo'ladi sharbat.



Mohinur KENJAYEVA,  
the pupil of school № 20, Shofirkon district Bukhara region

Gulchehra UBAYDULLAYEVA

**Saxiy bilan baxil bir  
buloqdan suv ichmas.**

**JAHON BOLALAR SHOIRLARI BOLALARGA**

Alfredo Vallini (Argentina)

**OLTIN  
BALIQCHA**

Billur jomda parishon,  
Suzar oltin baliqcha.  
Befarq boqar, ishi yo'q,  
Dunyo bilan tariqcha.  
Moviy osmon, zilol soy,  
Ziynatli kuz, kumush oy.  
Unutgan hammasini,  
Chirildoq nag'masini.  
Majnunatlar o'ksinar,  
Chirildoqlar xo'rsinar.  
Billur jomda baliqcha,  
Tinmay aylanar giryon.  
O'z erkidan ayirgan,  
Billur jomdagi zindon.



Yan Bjexva (Polsha)

**KUCHUKCHA  
QAYG'ULARI**

Mittigina jussasi,  
Lekin ko'pdir g'ussasi.  
Halal berishar ishga –  
Pianino g'ajishga.  
Yog'och o'lguday taxir,  
Tergamoq shartmi, axir?!  
G'ussalar tinchlik bermas,  
Nega suv quruq emas?  
Qo'shnini tishlolmasa,  
Mushukni ushlolmasa.  
Osmondan suyak yog'mas,  
Unga bu ishlar yoqmas.  
Sohibiga vafodor,  
Tag'in qanday xato bor?

Ovqat keldi, bas, yetar,  
Qorin to'ygach, g'am ketar!

Nurulloh OSTON tarjimasi

Nodira SHAHVAKTOVA chizgan rasmlar



**BOLALIK**

Mehmon-mehmon o'ynardik,  
Mezbon-mezbon o'ynardik.  
Singlim bo'lardi mehmon,  
Men esa saxiy mezbon.

Kulcha yasardik loydan,  
O'tlardan esa ovqat.  
Aslidek edi biram,  
Guldan qilingan salat.

Afsuski, bolaligim,  
Suvdek tez oqib ketdi.  
O'yinqaroq damlarim,  
Bir zumda o'tib ketdi.

O'sib bo'lsam barkamol,  
O'qib bilim olaman.  
Ulg'aysam-da, chin dildan,  
Bola bo'lib qolaman.

Tojigul YO'LDOSHEVA,  
Xorazm viloyati, Shovot tumanidagi  
15-umumta'lim maktabi o'quvchisi



**ENG CHIROYLI GUL**

Bog'da kezar edim aylab xirgoyi,  
Meni maftun etdi bir gul chiroyi.  
Qarshisiga borsam boqmadi qiyo,  
Der: «Mendek go'zal gul ko'rmagan dunyo!»

Nozik yaproqlarin etarkan ko'z-ko'z,  
Bog'dan olib chiqdim demay biror so'z.  
Onamning yoniga yetgan onimda,  
Birasda yo'qolib qoldi yonimdan.

Izlab bog'ga bordim lol-hayron bo'lib,  
Suluv gul yig'lardi barglari so'lib.  
«Ne bo'ldi?» so'rasam, «Angladim», der ul,  
«Onalar – dunyoda eng chiroyli gul».

Azizbek HABIBOV,  
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumanidagi  
8-IDUMI o'quvchisi

**«NABIRAMGA MAKTUBLAR» TURKUMIDAN**

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda)

Ba'zan odamlar og'zidan: «U bolami,  
u onasining erkatoyi», degan gaplarni  
eshitib qolaman. Xudoga shukurki, sen  
unaqa emassan. Erkatoiy bo'lmasliging  
seni mustaqilroq ulg'ayishingga sabab  
bo'ldi. Onang kasalxonada ishlardi.  
Seni ayni erkalik qiladigan paytlaring  
edi. Buving senga qanchalik parvona  
bo'lmasin, baribir onajoningni ishdan  
kelishini intiq bo'lib kutarding. Onang  
eshikdan kirishi bilan unga talpinarding.



Erkin MALIK,  
O'zbekiston Respublikasida  
xizmat ko'rsatgan jurnalist

**ONASINING ERKATOYI**

Palapondek qanot chiqarib uchmoqchi  
bo'larding. Shunda onang seni qanchalik  
sog'inmasin: «Hay, hay, nari tur, men  
gulzordan kelmayapman», deb seni  
o'zidan nari qilardi. O'yilmasan, o'shanda  
to'g'ri qilardi. Yuvinib, taranib olgandan  
keyin seni qo'liga olardi. Bu paytda sen  
boyagidek talpinmas, ko'zlaring onajoni-  
ningga to'yib qolgan bo'lardi. Bora-bora  
sen onajoningga talpinmay qo'yding. Kulib  
kutib oladigan bo'lding. Bu holat seni  
bolalikdan mustaqil bo'lishga o'rgatdi.  
Odatda erkatoylilik otaga, onaga suyanib  
qolishga olib boradi. Shuning uchun  
biz kattalar yoshlarni: «Bolangizni juda  
erkalatvormang, boshingizga chiqarib,  
keyin tushirolmay yurasiz», deb tanbeh  
beramiz.

Umuman, kattalar bilan bolalar o'rtasida  
qandaydir ko'zga ko'rinmas bir oraliq, ma-  
sofa bo'lgani yaxshi. Shunda bola ko'pgina  
holatlarda kattalarga emas, o'ziga suyanadi,  
ishonadi. Sen ko'z oldimda xuddi shunaqa  
bo'lib o'sding-da, quvonchim. Bolalikdan  
o'ziga ishonish, oyoqqa turib olish sing-

lingga ham yuqdi.  
Xalqimizda, «Katta  
yerdan yuradi», degan maqol bor. Bu  
nimalarda ko'rindi: singlingni bog'chaga  
oborib, obkelishingda, akalarcha g'amxo'r  
bo'lishingda. Agarda sen shunday qilma-  
ganingda, onajoning bamaylixotir ishlay  
olmasdi. Erta bilan bog'chaga, ishdan  
chiqib yana bog'chaga chopardi. Sen shu  
yoshingdan ro'zg'or degan «g'or»ga o'z  
ulushingni qo'sha boshlading, bilsang.  
Bugina emas, bog'chadan kelgach, sing-  
ling bilan chuvur-chuvur qilib, kartoshka,  
piyozlarni artishlaring, uyni, hovlilarni  
chinni-chiroq qilib qo'yishlaring yoqadi.  
Bu onangni qanchalar yaxshi ko'rishingni,  
e'zozlashingni bildiradi. Bilasan, men  
seni maqtamayman. Chunki sen bu  
ishlarni maqov olish uchun qilmaysan.  
Aslida ham shunday bo'lishi kerak-da,  
to'g'rimi, mening aqliligim?! Qo'ldan ish  
kelib qolgan bola uchun bu oddiy holat.  
Ammo ichimda duo qilaman. Iloho, duo  
bilan ko'kar, bolam.

(Davomi bor)



Bir bor ekan, bir yo'q ekan, qadim-qadim zamonda  
bir devor qo'shnilar bo'lgan ekan. Ulardan birining  
ismi Frank, ikkinchisini Andreas ekan. Qo'shnilar  
ahil-inoq yashashar, hovlilaridan olgan meva-che-  
valarini baham ko'rishar, doimo bir-birining  
holidan xabar olib turisharkan.  
Andreas bog'ini aylanib yurib,  
«Qani edi bir tup olma daraxtim  
bo'lsa, mevasini qo'shnim  
Frankka ham berardim.  
Chunki uning bog'ida  
olma daraxti yo'q», deb  
o'ylabdi. Shu payt Frank  
ham shu xayollar bilan  
o'z bog'ini aylanayot-  
gan edi.

Bir kuni qo'shnilar  
ne ko'z bilan ko'rsinki, de-  
vorlari o'rtasidan bir tup  
olma daraxti o'sib chiqibdi.  
Ular juda xursand bo'lib,  
«Bu qanaqa olma ekan,  
qachon mevaga kiradi, ana  
endi o'zimizning olmamiz bo'ladi. Hosilni teng  
bo'lishamiz, chunki daraxt bog'imizni chegaralab  
turuvchi devor o'rtasidan o'sib chiqibdi, deyishibdi.  
Kunlar ketidan oylar, yillar o'tib, to'rtinchi yili olma  
daraxti gullabdi.

Andreas hovlisiga chiqib, «Oh! Qanday ajoyib  
manzara, kuzga borib olmaning mevasini teraman»,  
deb xayol qilibdi. Daraxt yoniga kelib qarasa, meva  
shoxlarining ko'proq qismi uning bog'i tomondagi  
turganday ko'rinibdi. «Albatta, olma daraxti hosilining  
ko'prog'i meniki bo'ladi», deb o'ylabdi u.

Frank ham olma daraxti gullaganini ko'rib, rosa  
sevinibdi. «Mayli, pishaversin, qo'shnim bilan baham  
ko'ramiz», deb niyat qilibdi.

Nihoyat, kuz ham kelibdi. Frank «Mevani uzsak  
ham bo'lar, bozorda olmalar sotilayotganiga ancha

payt bo'ldi», deb daraxt tagiga kelibdi. Qarasa, me-  
valar terib olingan ekan. «Hoynahoy, Andreas terib  
olgan. Meni ham unutmaydi, mevadan ulushimni  
beradi», deb o'ylabdi. Kunlar o'tsa o'tibdi, lekin  
qo'shnisi Andreasdan sado chiqmabdi. Shunda  
Frank «Ha, mayli, kelasi yilgi hosil meniki  
bo'ladi», degan xayolda qo'shnisiga bir  
og'iz ham gapirmabdi.

Yana bahor kelibdi, daraxt-  
lar gullab, bolarilar  
g'uwillab, bol yig'a  
boshlabdi. Frank  
o'tgan yilgi voqeani  
eslab, bu yil olma me-  
vasini hammasini  
men olaman, deb  
ko'ngliga tugibdi.  
Kuz ham kelibdi.

Bozorga mevalar chiqib  
boshlagani hamonoq,  
Frank olmalarning barcha-  
sini yig'ib olibdi. Andreas  
qo'shnisining bu ishdan

biraz ranjibdi-yu, lekin u ham kelasi yilgi hosil  
meniki bo'ladi, deb ko'nglidan o'tkazibdi. Voqea  
shu tariqa davom etaveribdi. Nihoyat, bu ishdan  
ikki qo'shnining toqati tugab, olma daraxtini shartta  
kesib tashlabdi.

Kelgusi yili kuzda mevalar g'arq pishibdi. Olma  
yegisi kelgan qo'shnilar bir-biridan bexabar bozorga  
borishibdi. Rastalarni aylanib yurgan Andreas  
olma sotayotgan sotuvchi oldiga kelib, «Olma  
necha pul?», deb so'rabdi. Shu payt yonida olma  
xarid qilayotgan bir devor qo'shnisi Frankka ko'zi  
tushibdi. Ikkalasi ham uyatdan o'zlarini qo'yarga  
joy topa olishmabdi. Chunki ular qizg'anchiqliklari  
tufayli shu holga tushishibdi-da.

Ahror AKBAROV  
tarjimasi

# TO'XTA! O'YLA! GIYOHVANDLIKKA QADAM BOSMA!

Giyohvand moddalarga qaram bo'lish, uni sotib olish

va iste'mol qilish uchun hech narsadan tap tortmaslik, bu yo'lda hatto jinoyat sodir etish, zahri qotilni tarqatish, u sabab oilalarning buzilishi-yu bir umrga mayib-majruh bo'lib qolgan farzandlarning ko'z yoshi...

Bularning bari bugun yer yuzida tobora avj olib borayotgan narkobiznesning kasofati ekanligini yaxshi bilamiz. Sayyoramiz aholisi bu illatga qarshi kurashish uchun qanchalik ko'p kuch sarflamasin, giyohvand moddalarning yangi turlari ko'payib borayotgani achi-narli hol. BMT hisobotiga ko'ra, o'tgan yillar davomida giyohvandlar soni dunyoda 300 million kishidan oshib ketgan.

Ayrim yoshlarning arzimagan muammoga duch kelib, ko'cha-ko'ya notanish insonlar bilan muloqotda bo'lishlari, bunday «oshna-og'ayni»larning puch va'dalariga uchib, «hayotdan zavqlanish» evaziga o'zining qimmatli umrini zavol

**Giyohvandlik zamonaviy hayotning eng xavfli ko'rinishlaridan biri hisoblanadi. Har kuni giyohvandlik deb atalmish qo'rqinchli qarmoqqa minglab odamlar tushib qolmoqda.**

qilayotgani, bu orqali jinoyat ko'chasiga kirib, qarindoshlari, ota-onasining yuzini yerga qaratayotgani, eng yomoni, panjara ortida umrining guldek davrini o'tkazayotgani nahotki boshqa yoshlarga saboq bo'lmayapti? Manbalarga ko'ra, yer yuzida 15 yoshdan 64 yoshgacha bo'lganlar orasida qayd

etiladigan o'limlarning 1,3 foizi aynan giyohvandlik oqibatida yuz berar ekan. Ayniqsa, heroin Shimoliy Amerika, G'arbiy va Markaziy Yevropada keng tarqalgan giyohvand modda-

faqat mamlakatimizda, balki boshqa davlatlarda ham giyohvandlikka qarshi keng qamrovli kurash olib borilmoqda. Ommaviy axborot vositalarida uning zarari haqida ko'plab maqolalar yozi-layapti, ehsitirishlar, ijtimoiy roliklar efirga uzatilmoqda. O'quv muassasalarida, yoshlar o'rtasida turli tad-birlar o'tkazilmoqda.

**Aziz o'quvchi, ogoh bo'ling! Giyohvandlikning jirkanch va ko'rinas to'rlariga ilinib qol-mang. O'tkinchi ho-yu havasga aslo berilmang! Giyohvand insonlar-ni hayoti sizlarga emas, siz tanlagan yo'l ularga havas bo'lsin!**

Ozoda TURSUNBOYEVA



**Giyohvand moddalar savdosi va uyushgan jinoyatchilik Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi mam-lakatlarining iqtisodiy, siyo-siy barqarorligiga katta xavf solmoqda.**

si bo'lib qolmoqda. Uni 2014-yilda 250 million kishidan 183 millioni kamida bir marta tatib ko'rgani aniqlangan. So'nggi yillarda na-

**Bugungi suhbatdoshimizni sportchi yoshlar juda yaxshi tanishadi. Sardor RAHIMOV – «Sport» telekanali orqali efirga uzatiladigan boks, kurash, dzyudo, basketbol, xokkey, voleybol, taekvando, karate va futbol bo'yicha yirik xalqaro musobaqalarni tomoshabop tarzda sharhlab boradi. Ular bilan sevinli kasbi, qiziqishlari hamda kelajakdagi rejalari haqida suhbatlashdik.**

**Ustoz Eldor Mustafoyev bilan sharh paytida.**

ko'proq ishlashim kerakligini ta'kidlagan edilar. Bugun qanday muvaffaqiyatlarga erishgan bo'lsam, barchasi ana shunday mehdaryo, bag'rikeng ustozlarimning qimmatli maslahatlari, pand-nasihatlari tufayli, deb bilaman.

– Jonli efirda sharhlovchi ko'proq

qilgan «Tong yulduzi» gazetasi o'quvchilariga qanday tilaklar bildirasiz?

– Birinchi galdaki kitob, gazeta va jumallar o'qish, murabbiylarning so'zlariga doimo quloq tutish kerak. Shuningdek, sohaning yetuk ustozlaridan maslahat olish, ularning OAVdagi chiqishlarini muntazam kuzatib borish

## BOBOMGA HAVAS QILIB, SHU KASBNI TANLAGANMAN

– Sardor, keling, avvalo, jurnalistika sohasiga kirib kelishingiz haqida suhbatlashsak...

– Oilamiz uchun bu soha begona emas. Taniqli yozuvchi, bolalar suygani masalchi Muxtor Xudoyqulov mening bobom bo'ladi. Ularga havas qilib, shu sohani tanlaganman, desam, aslo mubolag'a bo'lmaydi.

Yana bir gap: bolaligidan sportga mehrim baland. Ayniqsa, futbol va boksni juda yaxshi ko'raman. Esimda, maktabda o'qib yurgan yillarim sinfdosh do'stlarim bilan turli musobaqalarda ishtirok etganmiz.

Maktabni tamomlagach hujjatlarimni hech ikkilanmay, O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga topshirdim. Chunki orzum sport jurnalisti bo'lish edi-da. Sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, 4 yil malakali ustozlardan soha sir-asrorlarini chuqur o'rgandim. Keyinchalik «Sport» telekanaliga ishga keldim. Bu qutlug' dargohda Rixsitilla Umarov, marhum ustozim Davlat Turdialiyev, Eldor Mustafoyev, Zafar Imomxo'jayev, Davron Fayziyevlarning yordami bilan sport jurnalistikasiga oid bilimlarimni yanada mustahkamladim. Bir voqea sira esimdan chiqmaydi: qaysidir kuni ertalab ishga kelsam, ustozim Davlat aka «Sardor, bugun basketbol bo'yicha musobaqa bo'ladi. Shuni sen sharhlaysan», dedilar. Bilasizmi, o'sha paytdagi hayajonimni sizga so'z bilan ta'riflab berolmayman. Ilk sharhimdan so'ng ular meni yoniga chaqirib, o'z ustimda yanada

nimalarga e'tibor qaratishi zarur?

– Eng avvalo, o'sha sport turining xarakteri va u haqida kuchli bilimga ega bo'lmog'i lozim. Qolaversa, jarayon ruhiyatini his qila olishi va shunga monand sharhni olib borishi zarur. Shaxsan o'zim boks musobaqalarini sharhlaganda, mazza qilaman. Chunki bolaligidan bir necha yil ushbu sport turi bilan shug'ullanganman. Aytmoqchimaniki, bokschi hayoti, ular «yeydigan» zarba menga ham begona emas (kuladi). Qolaversa, efir vaqtida turli keraksiz va ortiqcha ma'lumotlar bilan tomoshabinni zeriktirib qo'ymaslik zarur. Boisi, ular orasida sport haqida bizdan ham ko'proq bilimga ega bo'lganlari bor.

– Ayni kunlarda Rossiya yashil maydonlarida futbol bo'yicha jahon chempionati bo'lib o'tmoqda. Ushbu musobaqada qaysi terma jamoaning imkoniyatlarini yuqori baholaysiz?

– Birinchi tur o'yinlarini kuzatib, shunday xulosaga keldimki, bu gal Portugaliya, Ispaniya, Xorvatiya, Fransiya, Angliya, mag'lubiyatga uchragan bo'lsa-da, Germaniya terma jamoalarining imkoniyatlari juda yuqori. Qolaversa, Serbiya, Meksika, Islandiya, Senegal va Shveytsariya kabi jamoalarning ham shashti baland. Menga qolsa, eng kuchli jamoa g'olib bo'lishini istardim.

– Kelajakda siz kabi sport jurnalisti bo'lishni maqsad

lozim. Bir narsani aytib qo'yay, jurnalistika sohasi insondan dovyurak, jasur bo'lishni, qiyinchiliklarga qaramay, ortga chekinmaslikni, atrofdagi voqea-hodisalariga befarq bo'lmasslikni, eng muhimi, ijodni, adabiyotni sevishi kerak. O'ylaymanki, ana shunda ular bu sohaning yetuk mutaxassisi bo'lib yetishishadi.

Fursatdan foydalanib, barcha ustozlar va hamkasblarimni 27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni bilan samimiy muborakbod etaman. Sharafli, shu bilan birga, mas'uliyatli ishlarida ularga omad va zafarlar tilayman.

Sa'dullo TURSINOV suhbatlashdi



Yozgi Olimpiya o'yinlari sovrindori Murodjon Ahmadaliyev bilan.

# KITOB O'QISHNING 5 TA MUHIM JIHATI

**Kitob – ilohiy nur!** Qo'lingizga ushladingizmi, o'sha nur qalbingizga kirib borib, hayot yo'lingizni, ruhiyatingizni charog'on etadi.

**Kitob – qalbning filtri!** Uni ko'p mutolaa qilgan bola insonlar hayoti va ma'naviyati uchun aks ta'sir o'tkazadigan yot g'oyalar, turli oqimlarga qarshi sinmas va bo'linmas «immunitet»ga ega bo'ladi.

**Mutolaani sevgan odamning dunyoqarashi, tasavvuri kengayadi.** Bunday inson esa go'zal ishlarni amalga oshiradi. Atrofdagilarga nisbatan chuqur hurmatga ega bo'ladi.

**Kitob – ulkan tarbiyaviy kuch!** Kitob o'qib, tarbiya topgan farzand kishilar bilan go'zal muomalada bo'ladi. Ibratli fe'l-atvori egasiga aylanadi. Bu esa inson va jamiyat uchun ulkan ma'naviy boylikdir.

**Qalbni ilm bilan nurafshon etish uyg'oq yurak bilan yashashni o'rgatadi.** Qalbi uyg'oq inson atrofdagi odamlar va voqealarga nisbatan befarq bo'lmaydi.



**Kitob mutolaa qilish bolalarning fikrlash qobiliyatini, so'z boyligini oshiradi. Buni o'z faoliyatimda ko'p bora sinovdan o'tkazganman.**

## TA'TIL HAM O'QISH FASLI


O'quvchilarimning barchasi kutubxonaga a'zo bo'lishgan. Bo'sh vaqtlarida kichik yoshdagi bolalarga mo'ljallangan kitoblarni birgalikda o'qiydiz, mazmuni yuzasidan fikrlashamiz. Ayniqsa, Diyora, Shahboz, Dilbek, Zulayho, Sevinchxon, Nargiza, Akbarjon kabi o'quvchilarimning fikrlari tiniq, nutqlari ravon. Bu ko'p kitob o'qiganlikning foydasidir. Joriy yil ular 5-sinfga o'tishdi. Bitiruvchi boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ta'til davomida ham kitobga do'st bo'lib qolishni maqsad qildik.

**Shohista MATMUSAYEVA,**  
Farg'ona viloyati, Beshariq tumanidagi 5-umumta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Shunday ekan, aziz bolajonlar, qo'lingizdan aslo kitob tushmasin! Qalbingizni ilm nurlari doimo yoritib tursin!

Sanobar QULMIRZAYEVA tayyorladi

### BO'SH O'TIRMA, BOSH QOTIR!



**Bo'yiga:** 1. Sevimli adib, «Jannati odamlar» romani muallifi. 2. «Qizil shapkacha» ertagi muallifi. 3. To'rt misrali she'riy janr. 4. «Ur, to'qmoq!» ertagidagi saxovatli qush. 5. A.S. Pushkinning bolalarga atalgan asarlaridan biri. 7. I. A. Krilov masali: «Bo'ri bilan ...». 8. Nasriy asar janri. 13. «Alpomish» dostoni qahramoni. 15. O'zbek mumtoz shoirasi. 18. «Gulxan», «Qanot» kitoblari muallifi, o'zbek shoirasi. 19. Zulm va haqsizlikka qarshi

sadoqat va adolat ulug'langan o'zbek xalq dostoni. 24. Mumtoz shoir Abdurahmon Jomiy dostoni. 25. «Yo'lbars terisini yopingan pahlavon» dostonini yozib qoldirgan gruzin mumtoz shoiri.  
**Eniga:** 6. Maqoldan: «Belgi bo'lsa, yo'ldan adashmas, ... bo'lsa, so'zdan adashmas».  
**«Zanjir» holida:** 9. Usmon Nosir dostoni. 10. Muqimiy she'ri. 11. Abdulla Qodiriyning «Mehrobdan chayon» romani qahramoni. 12. «Shum bola»

qissasi bosh qahramonining do'sti. 20. O'quv qo'llanma. 21. Kutubxonadagi kitoblardan tanlab olish manbai, ro'yxat. 22. Aleksandr Dyumaning sarguzasht romanidan: «... Monte Kristo». 23. Bir baytdan iborat mustaqil she'r.  
**Yoy bo'yicha:** 13. She'riy parcha. 14. Yirik nazmiy asar. 16. O'zbek hikoyanavis adibasi. 17. Kichik nasriy janr.  
**Diagonal bo'yicha:** 24. Xalq shoiri, oqin.

Tuzuvchi: Foziljon ORIPOV

8

25-iyun 2018

Tong  
yulduzi

Muassis:

O'zbekiston Respublikasi  
Xalq ta'limi vazirligi

Bosh muharrir  
Feruza ADILOVA

Gazeta O'zbekiston  
Matbuot va axborot  
agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan  
o'tgan.

TAHRIR HAYATI:  
Qahramon QURONBOYEV,  
Alisher SA'DULLAYEV,  
Laziz TANGRIYEV,  
Murtazo SULTONOV,  
Feruza JALILOVA,  
Ashurali JO'RAYEV  
(Bosh muharrir o'rinbosari),  
Feruz MATYOQUBOV  
(mas'ul kotib)

Navbatchi muharrir  
Sa'dullo TURSINOV  
Rassom  
Feruzbek KAMOL o'g'li  
Sahifalovchi-dizayner  
Shaxobiddin  
MAXMADIYEV

«O'zbekiston» NMIU  
bosmaxonasida chop etildi.  
Manzilibiz va bosmaxona  
manzili:  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100011.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail: info@tongyulduzi.uz  
www.tongyulduzi.uz  
Adadi – 61306  
Buyurtma – V 1868

Tahririyatga kelgan  
barcha qo'lyozmalar tahrir  
qilinadi, mualliflarga  
qaytarilmaydi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
Bahosi kelishilgan narxda.  
Gazeta haftaning dushan-  
ba kuni chop etiladi.  
Topshirish vaqti – 18:00  
Topshirildi – 18:00  
Tel./faks:  
(99871) 244-63-08